



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Nargiza Ermetova

A. Avloniy nomidagi XTMO'IBITI ilmiy xodimi

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHI KASBIY STANDARTINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotasiya. Maqolada umumta'lism maktablarda sifatli ta'limni ta'minlashda o'qituvchi kasbiy standartining o'rni va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim muassasa, ta'lim, sifat, o'qituvchi, kasb standarti

Аннотация. В статье освещены роль и значение профессионального стандарта учителя в обеспечении качественного образования в общеобразовательных школах.

Ключевые слова. Образовательное учреждение, образование, качество, педагог, профессиональный стандарт.

O'zbekistonda bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishga va ta'lim berishning yuqori natijalariga erishishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu masalalarga tizimli yondoshish va uzoq muddatli istiqbolni aniqlab bergen bir qator hujjatlar qabul qilindi. Shunday hujjatlardan biri 2019 yil 29 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sون Farmonidir. Hujjatda ta'lim sohadagi mavjud muammolar orasida "direktor va o'qituvchilar bilishi va bajarishi kerak bo'lgan aniq belgilangan milliy standartlarning mavjud emasligi, ularning salohiyati o'sishiga hamda amaldagi muassasalar rahbarlarini tanlash va tayinlash tartibining samarasizligiga olib kelmoqda" [1] deb alohida ta'kidlangan.

Professional ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish umumiyl o‘rta va professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalg qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabridagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni [2] ijrosini ta’minalash maqsadida A.Avloniy nomidagi Xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan YuNISEF xalqaro bolalar tashkiloti ko‘magida umumiyl o‘rta ta’lim maktabi direktori va umumiyl o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisining kasb standarti ishlab chiqildi.

O‘qituvchining kasb standarti – zamonaviy o‘qituvchining kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar to‘plamini aks ettiruvchi rasmiy hujjat sifatida shakllantirilib, unda o‘qituvchi ta’lim jarayonini rejalashtirishda zamonaviy ta’lim nazariyalaridan foydalanishi va bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olishi, fanning metodologiyasini bilishni va o‘qitish uslublarini o‘quvchilar talablariga muvofiq amalda qo‘llashi, faollashtiruvchi va interaktiv usullardan foydalangan holda barcha o‘quvchilarini o‘quv jarayoniga jalg qilishi, o‘quv jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilarning ta’lim natijalarini baholash, tahlil qilish va xulosalar berishi, o‘quvchilarga o‘zlarining ta’limdagi yutuqlari darajasi to‘g‘risida ma’lumot olishlari uchun fikr-mulohaza bildirishi, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va har bir o‘quvchining xarakter xususiyatlarini shakllantirishi, o‘quvchilarning emosional va ijtimoiy malakalarini rivojlantirish, o‘quv jarayoni jiddiy stress va qo‘rquvsiz, qiziqish va qo‘llab-quvvatlash muhitida amalga oshirishda o‘quvchilarning intellektual va ijtimoiy-emosional rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishi, malakasini uzluksiz oshirish maqsadida ixtiyoridagi vositalardan (mutaxassislik bo‘yicha materiallar va adabiyotlar, malaka oshirish kurslari, boshqa mutaxassislarning tajribasi, o‘z faoliyati natijalari) foydalaniib, kasbiy rivojlanishga oid ehtiyojlarini anglash va tahlil qila bilishi, ota-onalar va mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qilish strategiyasini yaratish va bolalarning o‘qishi va farovonligini oshirish bo‘yicha birgalikdagi tadbirlarni rejalashtirishi, oilalar va ta’lim muassasasi o‘rtasida doimiy ikki tomonlama aloqalarni va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish orqali bolalarning o‘qishi va kelajagi uchun barcha tomonlarning manfaatlari va majburiyatlarini tan olishga yordam bera olish kabi qobiliyat va kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozimgi belgilangan.

O‘qituvchining kasbiy standarti ushbu talablar va maqsadlar bo‘yicha yagona qarashni aniqlash uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘qituvchining samarali faoliyatining ko‘rsatkichlarini belgilaydi hamda XXI asr maktabida yuqori sifatli ta’lim berishni ta’minalashga va shunga muvofiq ravishda o‘quvchilarning yuqori ta’lim natijalariga erishishlari uchun nimalarga intilishi kerakligi aniqlashtiradi.

Kasbiy standart o‘qituvchi faoliyati uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tarkibi va mazmuni yangi avlodga ta’lim berish va tarbiyalashning yangi maqsadlariga mos keladi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim va o‘qitishga qo‘yiladigan talablar katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ular juda keng ifodalangan.

O‘qituvchining erkinlik chegaralarini kengaytirish, shu bilan birga professional standart uning ish natijalari uchun javobgarligini oshiradi, uning malakasiga talablar qo‘yadi, uni baholash mezonlarini taklif qiladi.

Kasbiy standart bu samarali ta’limning asosiy elementlarini belgilaydigan tizimdir va shuning uchun sifatli ta’limni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun kasb va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni ta’minlashda umumiy qo‘llanma bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sон Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabridagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sон Farmoni.